

## YANGI QATLAM. NEOLOGIZMLAR

**Mahammadjanova Marxabo Dilmurod qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda o‘zbek tili leksikasiga kirib kelgan va so‘zlashuv jarayonida faol ishlatilayotgan neologizmlar hamda ularning tasnifiga qaratilgan mulohazalar, ularning o‘zbekcha muqobiliga almashtirish masalalari haqida atroflicha fikr yuritiladi*

***Kalit so‘zlar:** neologizm, o‘rganish manbasi, predmeti, leksika, tizim, tilshunoslik, semantik, axborot.*

***Abstract:** In this article, neologisms that have entered the lexicon of the Uzbek language today and are actively used in conversation, as well as comments on their classification and the issues of replacing them with Uzbek alternatives are discussed in detail.*

***Key words:** neologism, learning source, subject, lexicon, system, linguistics, semantics, information.*

### **Kirish.**

Bugungi hunda axborot almashinuvining tezlashishi zamon va makonning, til va urf-odatlarining ham o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo‘layotgan ma’lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma’lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan neologizmlar tilning shakli ravishda o‘zgarishiga olib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi” da “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat

vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”<sup>1</sup> -deya ta’kidlab o‘tganlar. Avvalambor, xalqimiz o‘zligini saqlashi bu tilimizga bevosita chambarchas bog‘liqdir. Fikrimizni tilimizning boyishiga hissa qo‘shuvchi yangi qatlam –neologizmlar haqida davom ettirsak.

### **Asosiy qism.**

Hozirda muomaladagi neologizmlar o‘rniga tilimizda mavjud bo‘lgan muqobiliga almashtirish va bu kabi tilimizga keyinchalik ham kirib keladigan neologizmlarni muomala jarayoniga olib kirmasdan ilgariroq tilizdagi muqobiliga almashtirish. Demak, hozirda tilshunoslikdagi katta muammolardan biri – neologizmlardir. Bizni oldimizda ikkita bajariladigan ish mavjud bular: hozirda muomalada bo‘lgan neologizmlarni o‘zbek tilidagi muqobiliga almashtirish va bu muqobilning muomalada ijobiy qabul qilinishiga erishish. Ikkinchidan, texnika asrida tilimizning sofligini saqlash maqsadida keyinchalik kirib kelayotgan neologizmlarni muomalaga kirmasdan ilgari o‘zbekcha muqobilini yaratish va bu ishni amalga oshirishda tilimizni rivojlatiradigan barcha tashkilotlarga birdek ma’suliyat yuklashdir<sup>2</sup>.

Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo‘layotgan ma’lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma’lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan neologizmlar tilning shakily ravishda o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ularga birgina bank sohasi doirasida oladigan bo‘lsak anchagina salmoqqa ega so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar, tushunchalarni ifodolovchi lug‘aviy birliklardir. Bunday so‘zlar xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Leksik o‘zlashma neologizmlar.

2. Semantik o‘zlashma neologizmlar. Leksik o‘zlashma neologizmlar tilga tamoman o‘zlashib ketmagan o‘zbek tilining o‘zida yasalgan yoki boshqa tillardan

---

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 21.10.2019

<sup>2</sup> Qo‘ziyoyeva G “Tilimizga kirib kelgan neologizmlar va ularning tahlili” SCIENCE AND INNOVATION 2022 № 3

o‘zlashib butunlay iste‘molga kirmagan so‘zlardir. Masalan, zovut, zamin studiyasi, sarhad, kollej, menejment, bakalavriyat, magistratura, dastur, bar, bojxona, aksiya, bandargoh, tuman kabilar.

Semantik o‘zlashma neologizmlar tilda oldindan mavjud bo‘lgan va hozirda yangi ma‘noda ishlatilayotgan so‘zlardir. Masalan, tuman (rayon), viloyat (oblast), do‘kon (magazin), anjuman (konferensiya) va boshqalar<sup>1</sup>. Deyarli barchasi ingliz yoki boshqa tillardan aslidek olingan so‘zlar hisoblanadi.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar o‘tib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni sofligicha saqlash uchun tilshunoslarimiz oldida ulkan ishlar kutib turibdi. Dunyoda boshqa tillardan so‘z olmaydigan bironta ham til yo‘q. Kurash, yonbosh, chala, halol so‘zlari dunyoning barcha tillariga kirib borayotgani bizning tilimiz ham turmushimizga kirib kelgan bir qator yangi tushunchalarni ifodalovchi olinma so‘zlar hisobiga boyib bormoqda. O‘zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo‘lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarning iste‘moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarning esa kirib kelish hisobiga o‘zgarib, rivojlanib boraveradi.

---

<sup>1</sup> Abduvaitov E “O‘zbek tilida neologizmlar” Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 6 | 2023

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobitdinov S. “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”. 2012
2. Qo‘ziboyeva G “Tilimizga kirib kelgan neologizmlar va ularning tahlili” SCIENCE AND INNOVATION 2022 № 3
3. Abduvaitov E “O‘zbek tilida neologizmlar” Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 6 | 2023
4. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
5. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725